

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI**

**«HAYOT FAOLIYATI XAVSIZLIGI» KAFEDRASI**

**Magistrlik dissertatsiyasining «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo‘limini  
bajarish bo‘yicha**

**USLUBIY KO‘RSATMA**

**+TOSHKENT-2016**

Ushbu uslubiy ko'rsatma institut ilmiy-uslubiy Kengashning «11 fevral» 2016 yildagi 1-sonli majlisida tasdiqlandi va chop etishga tavsiya etildi.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada barcha magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlik dissertatsiyasining «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo'limining maqsadi, unga qo'yiladigan talab va vazifalar, hamda ularni bajarilishining tartibi, mavzulari va ularni himoyaga tayyorlash, reja tuzish, adabiyotlardan foydalanish tartibi, amaliyot o'tilgan korxonalarining hayot faoliyati xavfsizligining ifodalovchi ma'lumotlarni yig'ish, ularni ustida ishlash, tahlil qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan bo'lib, uslubiy ko'rsatma magistrlar va dissertatsiyaning HFX bo'limi bo'yicha ilmiy maslahatchilarga mo'ljallangan.

**Tuzuvchilar:**                   **T. Haydarov dotsent, t.f.n.;**  
**I. Ahmedov, dotsent, t.f.n.**

**Taqrizchilar:**                   **R. Xalilov, ToshDAU, dotsent, t.f.n.;**  
**kafedra mudiri;**  
**B. Obidov, TIMI , SE va NSF**  
**kafedrasi dotsenti, t.f.n.**

## KIRISH

Yer yuzida insonlarniig barcha xatti-harakatlari o'zlarining hayotda manfaatdorligiga va uning doimiy yaxshilanib borishiga qaratilgan.

Xavfsiz va sog'lom mehnat sharoiti yaxshi yashashning va ishlab chiqarishda unumdorlikni oshirishining asosi hisoblanadi. Inson tabiatning bir elementi sifatida unda hosil bo'ladigan hodisalar, voqealar va umuman o'zgarishlar albatta insonning o'ziga ham taalluqli tasirini ko'rsatadi.

Zamonaviy korxonalar va tashkilotlar faoliyatini industriyasiz yoki avtomatlashgan tizimdan holi deb bo'lmaydi. Kabinet ishlari, dala ishlari, har qanday ish joylari va umuman inson faoliyat ko'rsatadigan joylar albatta xavf xatardan holi bo'lmaydi. Xavflarni ikki holati bor: potensial (yashirin) va real (ochiq). Ularning har qanday holati ham asosan inson faoliyati ta'sirida bo'lishini bilish zarur. Bundan tashqari, ular xarakteri bo'yicha tabiiy va texnogen turlarga bo'linadi.

Tabiiy xarakterdagi xavflarga tektonik hodisalar, metrologik holatlar, geologik va gidrografik o'zgarishlar va shunga o'xshashlar kiradi.

Texnogen xarakterdagi xavflarga inson faoliyati ta'sirida sodir bo'ladigan xavflar kiradi. Hap qanday xavflarni ochiq holatiga o'tishi insonii jarohatlanishiga, kasallanishiga, zararlanishiga va hatto o'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limini bajarishdan maqsad hayotda va xususan ishlab chiqarishda potensial xavflarni ochiq xavfga aylanishi mumkinligi darajasini pasaytirishdir. Bu dissertatsiya mavzulariga tegishli ob'ektlar, korxonalar, tashkilotlar asosida bajariladi.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimov Respublikani bozor iqtisodiyotiga o'tishida "kuchli ijtimoiy siyosat" tamoyili zarurligini belgilab bergan. Bunga asosan aholini har xil xavflardan himoyalash mamlakatning ustivor va strategik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limini bajarish uchun tavsiya etiladigan mavzularni tuzishda HFX kafedrasida yaratilgan uslubiy qo'llanmadan foydalanildi.

## I. UMUMIY KO‘RSATMALAR

1. Magistrant HFX kafedrasiga kelib belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tadi, ya’ni laborant tomonidan maxsus jurnalga qayd etiladi va mutaxassislikka belgilangan va ilmiy salohiyatga ega o‘qituvchi ilmiy maslahatchi etib birlashtiriladi.

2. Magistrant maslahatchi o‘qituvchi bilan birgalikda o‘z ishi mavzusiga tegishli ob’ektni HFX bo‘limini bajarish uchun aniqlaydi, undan tegishli maslahat va ko‘rsatmalarni oladi. Bajarilish sanasi belgilanadi.

3. Magistrant HFX bo‘limi mavzusini olgandan so‘ng ko‘pi bilan bir hafta ichida bajarishi lozim.

4. Magistrant dissertatsiya ishini HFX bo‘limini bajarishi uchun kafedradan "Uslubiy ko‘rsatma"ning elektron variantni olishi mumkin.

5. Dissertatsiyaning HFX bo‘limi hajmi bo‘yicha umumiy ishning 8-9% tashkil etishi va matn kompyuterdan terilgan bo‘lishi kerak.

6. Dissertatsiya ishining HFX bo‘limini bajarishga yozuv va chizmalariga qo‘yiladigan talab ularni umumiy bajarilishiga qo‘yiladigan me‘yoriy va texnik talablardan farq qilmaydi.

7. Dissertatsiyaning HFX bo‘limi qo‘yidagi qismlardan tashkil topadi:

A. Hayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari;

B. Mehnat muhofazasi

V. Fuqaro muhofazasi;

G. Yong‘in xavfsizligi;

D. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.

8. Dissertatsiyaning HFX bo‘limi bo‘yicha 1 ta ko‘rgazmali chizma yoki slaydlar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

**A-B. Hayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari va mehnat muhofazasi** bo‘yicha ob’ektga tegishli ma’lumotlarni olish va ishni bajarishda

qo'yidagi adabiyotlardan foydalanish mumkin:

1. H.E. G'oyipov. «Mehnat muhofazasi». Toshkent, 2000 y. O'quv qo'llanma. 255 bet, 1 -bob.

2. R.B. Bobojonov. «Hayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari». Toshkent, 2005 y. o'quv qo'llanma.

3. A.B. Луковников, В.С. Шкрабак. «Охрана труда». Москва, 1991. Раздел 1.

**V. Fuqaro muhofazasi** bo'yicha qo'yidagi adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. G'. Yormatov, Yo. Isomuhamedov. Mehnatni muhofaza qilish. Toshkent, 2002 y. 3836. Darslik. 7-bob.

2. H.E. G'oyipov. Mehnat muhofazasi. Toshkent, 2000y. O'quv qo'llanma. 255 bet. 6-bob.

3- Н.И.Акимов, В.Г.Ильин. Гражданская оборона на объектах сельскохозяйственного производства. Москва, 1978, 355с.

4. И.В.Фурман. Безопасность труда при эксплуатации гидромелиоративных систем. Москва, 1982.

5. В.Г.Луцкий. Охрана труда при эксплуатации оросительных систем. Москва, 1990.

6. В.С.Шкрабак. Охрана труда. Москва, 1990.

7. А.И-Кондратьев, Н.М.Местсекина. Охрана труда в строительстве. М. 1995.

8. Сборник нормативных документов по охране труда принятых в соответствии с трудовым кодексом Республики Узбекистан. Ташк. 1996

9. M. Yu. Yunusov, I. Axmedov, N. Saidxo'jayeva. «Radiatsiya xavfsizligi» fanidan ma'ruzalar kursi. Toshkent, 2008 y. TIMI bosmaxonasi.

10. Shaxsiy himoya vositalarini o'rganish va tanlash. Uslubiy ko'rsatma. Toshkent, 2007 y. TIMI bosmaxonasi.

11. Защита населения и территорий от чрезвычайных ситуаций. Ташкент, 2003. Учебное пособие.

**G. Yong'in xavfsizligi** bo'yicha qo'yidagi adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. A.D.Xudoyev. Yongin xavfsizligi. Toshkent, 2007 y. o'quv qo'llanma.

2. O.S.Kazakova, L.F.Kazakov. Охрана труда и пожарная безопасность на предприятиях железобетонных изделий. Москва, 1990 г. Учебное пособие.

3. Рекомендации по определению необходимого количества первичных средств пожаротушения. Тошкент, 2006.

4. G'.Yormatov. Mehnatni muhofaza qilish. Toshkent, 2002 y. Darslik 13-bob.

5. H.E.Foyipov. Mehnat muhofazasi. Toshkent, 2000 y. 10-bob.

**D. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish** bo'yicha quyidagi adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. H.E. G'oyipov. Mehnat muhofazasi. Toshkent, 2000 y. 11 -bob.

2. Shikastlangan kishilarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish. Uslubiy ko'rsatma. Toshkent, 1998. TIMI bosmmaxonasi.

3. A.B.Луковников, В.С.Шкрабак. Охрана труда. Москва, 1991. Раздел 7.

### **1.1. Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limining maqsadi va vazifalari**

Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limini yozishdan maqsad magistrlarga HFX fani bo'yicha olgan nazariy bilimlari darajasini mustahkamlash va ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini yuzaga keltirishdir.

Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-magistrning HFX fani bo'yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish, ularni tartibga solish, mustahkamlash va bilim darajalarini yanada kengaytirish;

-magistraturada o'qish jarayonida olingan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llashga ko'nikma hosil qilish;

-amaliyot o‘tilgan korxonalar va tashkilotlarda HFX fani bilan bog‘liq muammolarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish va ularning to‘g‘ri yechimini aniqlashga o‘rgatish;

-mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish sanitariyasi, texnika, elektr va yong‘in xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni himoya qilish muammolari tushunish va ularning to‘g‘ri yechimini aniqlashga o‘rgatish;

-HFX muammolarini hal etishda tadqiqot ishlarini olib borish metodlarini o‘zlashtirish;

Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo‘limining maqsadi suv va qishloq xo‘jalik korxonalar va tashkilotlarida ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish hamda favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda korxonalarni barqaror ishlashlari sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash, tadqiqot olib borish, shuningdek, mavjud kamchiliklarning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirishdir.

## **1.2.. Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo‘limining mavzularini tanlash**

Kafedrada magistrlik dissertatsiyasining HFX bo‘limining mavzulari va ularning taxminiy rejalari ishlab chiqilib, kafedra majlisida ko‘rib chiqiladi va fakultet Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda har yili boshida dolzarb mavzular bilan to‘ldirilgan holda qayta ishlab ko‘rib chiqiladi.

Magistrlar magistrlik dissertatsiyalari mavzularida o‘rganilayotgan korxonalar, tashkilot, mashina va mexanizmlar, uskuna va vositalar yoki ishlab chiqarish jarayonlariga xos bo‘lgan xavfsizlik masala va muammolarga qo‘ra mavzu tanlaydilar.

## **1.3. Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo‘limi ilmiy maslahatchisi va magistrning vazifalari**

Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo‘limi ilmiy maslahatchisi qilib ushbu oliy o‘quv yurtining HFX kafedrasining ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilari tayinlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limi ilmiy maslahatchisi vazifalari:

- topshiriq beradi;
- HFX bo'limini bajarish muddatini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumotlar va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan belgilangan grafik asosida maslahatlar o'tkazadi;
- ishni bajarilishi jarayonini nazorat qiladi;
- bajarilgan ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularni -qaytarilishiga va boshqa manbalardan aynan ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Magistrning vazifalari:

- dissertatsiyaning HFX bo'limi berilgan topshiriq asosida shaxsan magistr tomonidan bajariladi;
- tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning berilgan mavzuga muvofiqligiga, dissertatsiya ishida ko'chirmachilik holatini yo'qligiga javob beradi.

#### **1.4. Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'liminig mazmuni**

Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'liminig mazmuni uning mavzusidan kelib chiqib belgilanadi. Ishning HFX bo'limi quyidagi qismlardan iborat bo'ladi: muammoning dolzarbligi, ob'ektning, vosita va jarayonning tasnifi, xavflarni aniqlash va bartaraf qilish yo'llari, hamda xulosa va takliflardan iborat. Ushbu bo'limning ishi rejasi rahbar bilan birgalikda tuziladi va mutaxassislik kafedra tomonidan tasdiqlanadi.

Bu bo'limda quyidagilar masalalar yoritilishi kerak va uning tarkibi tanlangan mavzu mazmunidan kelib chiqqan bo'lishi lozim:

- tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning xavfsizlikni oshirishdagi ahamiyati;
- mavzuning o'rganilganlik darajasi va ilmiy yangiliklari;
- bo'lim mavzusining maqsadi va vazifalari;
- tadqiqotning nazariy - uslubiy uslubiy asoslari;
- ilmiy tadqiqot ob'ektiga qisqacha tavsif va boshqalar.



Ushbu bo‘limda tadqiqot olib borilayotgan ob’ektda tanlangan mavzu bo‘yicha xavfsizlikni ta’minlash uchun olib borilayotgan ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari yoritish lozim. Shu bilan birga, o‘rganilgan mavzudagi nazariy masalalar, tashkiliy, texnik va sanitar-gigiyenik tadbirlar zamonaviy usul va vositalar asosida asoslash bilan tugallanadi.

Xulosa qismida mavzu yuzasidan olingan natijalar va muammolarni bartaraf qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalarga aks ettiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo‘liminig mazmuni magistrant tomonidan mustaqil ravishda shaxsiy fikrlar orqali mantiqiy jihatdan yondashgan holda xatolarsiz yozilishi lozim. Magistrlik dissertatsiyasining ushbu bo‘limini darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va boshqa shunga o‘xshash adabiyotlardan ko‘chirib yozish mumkin emas.

### **1.5. Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo‘limini bajarishni tashkil etish**

Magistrantlar dissertatsiyani yozishdan oldin ob’ekt sifatida qabul qilib olingan tashkilot, korxonalar va suv xo‘jaligi sub’ektlarida amaliyot o‘tkazadilar. Amaliyot o‘tish davrida ushbu ob’ekt bo‘yicha mehnat muhofazasi va favqulodda vaziyatlarda korxonalar va aholini himoya qilish masalalari bo‘yicha ma’lumotlar to‘planadi va o‘rganiladi. Dissertatsiyani bajarish bo‘yicha tuzilgan topshiriq rejasida va ularni bajarish bo‘yicha taqvimiy jadvalda HFX bo‘limida qilinadigan ishlar mazmuni va bajarish muddatlari aks ettiriladi.

HFX bo‘limi bo‘yicha ilmiy maslahatchi bilan dissertatsiya ishini bajaruvchi magistrantning uchrashuvi har hafta kafedrada amalga oshiriladi.

Dissertatsiya ishini bajarayotgan magistrant rahbar va kafedra mudiri tasdiqlangan topshiriq va uni bajarish bo‘yicha tuzilgan taqvimiy jadvalga qat’iy rioya etishi kerak.

## **II. MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING HAYOT FAOLIYAT XAVFSIZLIGI BO‘LIMI UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN**

### **NAMUNAVIY MAVZULAR:**

1. Mehnat muhofazasi xizmatini tashkil qilishda rahbarning vazifalari.
2. Mehnat muhofazasi ishlarini rejalashtirish.
3. Yalpi qirg‘in qurollaridan himoya ishlarini tashkil qilish.
4. Ma‘muriy binolarda ishlovchilarni xavflardan muhofaza qilish tadbirlari.
5. Mehnat muhofazasi tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.
6. Ijtimoiy rivojlanish rejasini joriy qilishdan keladigan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.
7. Ishlovchilarni kimyoviy qurollar xavfidan himoya ishlarini bajarish.
8. Ishlovchilarni bakteriologik qurollar xavfidan himoya ishlarini bajarish.
9. Derazalarni buzuvchi kuchlanishni aniqlash.
10. Aholini evakuatsiya qilishning hisobiy va zaruriy vaqtini aniqlash.
11. Tabiiy ventilyatsiyani hisoblash.
12. Sun‘iy ventilyatsiyani hisoblash.
13. Tabiiy yoritishni hisoblash.
14. Sun‘iy yoritishni hisoblash.
15. Mehnat muhofazasi talablari bo‘yicha korxonani pasportizatsiya qilish.
16. Yong‘inning oldini olish tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.
17. Xavfsizlik texnik vositalarini qo‘llash tadbirlarini iqtisodiy baholash.
18. Ish o‘rnini ergonomik baholash.
19. Yong‘inga qarshi suv ta‘minotini hisoblash.
20. Qo‘lda bajariladigan ishlarni tashkil qilishda xavfsizlik masalalari.
21. Yuqori zararlanish sharoitlarida ishni tashkil qilish.
22. Ish zonasida havoni mutadillashni tashkil etish.
23. Nosog‘lom mikroiklim sharoitlarida ishni tashkil qilish.

24. Maxsus kiyimlarga bo'lgan talablar va ularni tanlash.
25. Ishlab chiqarish binolarida va ish o'rinlarida isitishni hisoblash.
26. Mehnat muhofazasini boshqarish tizimida ma'lumot olishni tashkil qilish.
27. Mehnatni tashkil qilishda xavfsizlik darajasini aniqlash.
28. Mehnat sharoitini attestatsiyalash.
29. Mehnat muhofazasi ishlarini rejalashtirishni tashkil qilish.
30. Mehnat muhofazasi ishlarini rag'batlantirish va baholash.
31. Ish qobiliyatini yo'qotganda uni iqtisodiy oqibatlarini aniqlash.
32. Jarohatlanishlardan keladigan moddiy zararni hisoblash.
33. Kasbiy kasallanish tadbirlarini joriy qilishdan keladigan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.
34. Ish o'rinlarida ish sharoitlarini yaxshilash tadbirlarini joriy qilishdan keladigan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.
35. Ish tartibini takomillashtirishdan keladigan xavfsizlikning oshirishdagi samaradorligini aniqlash.
36. Xavfli zona o'lchamlarini aniqlash.
37. Yashin qaytargichdan inshootgacha bo'lgan masofani aniqlash.
38. Ishlab chiqarish va maishiy xonalarga bo'lgan talabni hisoblash.
39. Ishlab chiqarish binolarida havo almashinuvini aniqlash.
40. Xonaga kiruvchi zararli ishlab chiqarish omillarining miqdorini aniqlash.
41. Mahalliy ventilyatsiyani hisoblash.
42. Operatorning ish o'rnidagi vibroizolyatsiyani hisoblash.
43. To'suvchi konstruksiyalarning tovushni pasaytirishini hisoblash.

### III. DISSERTATSIYANING HFX BO‘LIMINI BAJARISH BO‘YICHA QILINADIGAN ISHLARNING MAZMUNI VA TARKIBI

**HFXning nazariy asoslari.** Mavzuga taalluqli fanning asosiy tushunchalari beriladi. Unga bog‘liq holda mavzu bo‘yicha taalluqli xavflarning tahlili, tarkibi va sohadagi tavakkal haqida ma’lumotlar keltiriladi.

HFX fanida xavfsizlikning boshqarish usublari mavzuga bog‘liq holda yoritiladi, Mazmuni ochiladi. Faoliyat xavfsizligini ta’minlash prinsiplari usullari va vositalari yozilishi lozim. Xavfsizlikni mavzuga tegishli vositalari haqida ma’lumotlar beriladi. Ergonomikaning HFXdagi o‘rni ko‘rsatilishi kerak. Ergonomika fanining vazifalari, xususan mazkur mavzuga tegishli qismi yoziladi. Ergonomik ta’minlanganlik va ishlab chiqarish sur’ati bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Ishlovchilarning sohaga xarakterliligi tavsiflanishi kerak.

**Mehnat muhofazasi.** Mehnat muhofazasi bajarilayotgan dissertatsiyaning asosiy qismiga bog‘liq bo‘lib bundagi sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavflar tavsiflanadi, turlari. aniqlanadi. Mehnat muhofazasi qismida ishlovchilarni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liqligi, ishlab chiqarish jarayonidagi xavflarni ishlovchilarga ta’siri ochiladi. Ishlovchilarga xavfli va zararli tomonlari ochiladi, yoritiladi va ular turlanadi. Xavflarni sodir bo‘lmasligi uchun me’yorlar darajasida hisob-kitob ishlari bajariladi. Xususan metrologik ko‘rsatkichlar, ishlab chiqarish binolari shamollatish tizimi, ularni vositalari tanlanadi, konstruksiyasi ishlab chiqiladi va grafik sxemasi tuziladi.

Havoni tarkibi to‘g‘risida, uning tarkibidagi zararli va zaharli moddalar aniqlanadi, me’yoriy ko‘rsatkichlarga solishtiriladi. Ularni aniqlash vositalari va metodlari keltiriladi. Ma’muriy xarakterdagi mavzular uchun ko‘proq ish qurollari. elektron hisoblash texnikalari, orgtexnikalar, xonalarni yoritilganligi va boshqa elektr va magnit maydon tarqatuvchi asbob uskunalar tavsiflanadi. Ular bilan ishlovchilarni munosabati yoritiladi. Me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Ishlovchilar uchun ish joylarini yoritilganligi tavsiflanadi. Ish joyini yoritish sxemasi va vositalari hisobi, joylashtirilishi aniqlanadi. Ishlab

chiqarishdagi shovqin ko'rsatkichlari aniqlanadi. Me'yoriy ko'rsatkichlar keltiriladi.

Mexanika sexlari, qurilish jarayonlari, meliorativ va umumqurilish texnikalari bilan bog'liq mavzularda titrashga alohida ahamiyat berilishi kerak. Titrash ishlovchilarni jismonan va ruhiy toliqtiradigan omil hisoblanadi. Zamonaviy ishlab chikarishning barcha bo'g'inlarida, shu jumladan mexanika korxonalari, mexanizmlar, ma'muriy xarakterdagi ish joylarida albatta elektr xavfi bor. Buni tavsiflash lozim, o'rnatishdagi sxemalari tavsiflanadi. Ustaxonalardagi xavfsiz zonalar hisoblanadi va chizmada ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar faoliyati bilan bog'liq mavzularini yoritishda ishlovchilar va yashovchilarga pestitsid va gerbetsidlarning ta'siri, ularning xususiyatlari ochiladi. Pestitsid va gerbetsidlarniig me'yorlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Pestitsidlarni ekologik xavflarni keltirib chiqaradigan tomonlari ochilishi lozim. Ularni ishlatganda foydalaniladigan xavfsizlik texnikasi qoidalari yoziladi. Ularni ishlatishda zararli tomonlarini kamaytirish tadbirlari ishlab chiqiladi. Barcha ish turlarini bajarishda o'ziga tegishli umum foydalanadigan za shaxsiy himoya vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar tuziladi va miqdori hisoblanadi.

Yuk ko'tarish-tushirish va tashishda qo'llaniladigan vositalar, mexanizmlar va boshqa asbob-uskunalar haqida yoziladi. Ularda qo'llaniladigan zaruriy, kafolatlik moslamalari yoritiladi. Kerak bo'lganda sxemalari chiziladi. Bunda ishlashning xavfli hududlari hisoblanadi. Ular bilan munosabatda bo'luvchilar uchun talablar yoziladi. Yo'l harakati qoidasi to'g'risida, Davlat avtoinspeknialari, temir yul xo'jaligi va ular bilan bog'liq bo'lgan injenerlik boshqaruv organlari tomonidan olinadigan masalalar yoritiladi. Xavfsizlikni ta'minlash choralari beligilanadi.

**Yong'in xavfsizligi.** Dissertatsiyaning HFX bo'limida belgilangan ob'ekt (bino, inshoot, ishlab chiqarish jarayonlari, mashina-mexanizmlar, korxonalar, odamlar va b.) bo'yicha yong'in xavfsizligi nuqtai nazaridan sinflanadi. Xavfli uchastkalar belgilanadi. Yong'in sodir bo'lishining oldini olish uchun

bajariladigan ishlarning bosqichlari va turlari aniqlanadi. Yirik ishlab chiqarish korxonalarida yong‘inga qarshi asbob uskunalar to‘plami hosil qilinadi. Hududiy xarakterdagi ishlar uchun (tumanlar va boshqa aholi punktlari) yong‘in detallari tashkil etiladi. Ularni jihozlash, ya‘ni maxsus mashinalar. asbob-uskunlari bilan ta‘minlash me‘yoriy ko‘rsatkichlar asosida bajariladi va ular haqida ishning tarkibida yoziladi. Yong‘in haqidagi ma‘lumotlarni olish uchun maxsus datchiklar va avtomatikadan foydalaniladi. U haqida ma‘lumotlar kelitiriladi.

**Birinchi tibbiy yordam.** Bu qismda mavzu ob‘ektida xavfni sodir bo‘lishiga sharoit hosil bo‘lish bo‘g‘inlari va uskunalari tavsiflanadi. Ishlab chiqarishda tan jarohati olish yoki o‘tkir zararlanish va zaharlanish natijasida ishlovchilar birinchi yordamga muhtoj bo‘ladi. Xavflar kuzatilmagan holatda sodir bo‘ladi. Shu sababli birinchi tibbiy yordam zarur bo‘ladi. Magistrant o‘z ishining ob‘ektida eng ko‘p sodir bo‘ladigan jarohatlanish, zararlanish yoki zaharlanish uchun birinchi yordam turini yozishi lozim. Tan jarohati olgan odamlar uchun yordam, elektr tokiga tushishdan zararlanganda, kimyoviy moddalardan zararlanganda, suvga cho‘kishdan zararlanganda, vayronalar natijasida jarohatlanganlarga, ko‘chkidan, yalpi qirg‘in, bakteriologik, kimyoviy va boshqa jangovar qurollardan zararlanganlarga, tabiiy ofatlarlardan zararlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish turi va uslubi yoziladi.

Bo‘lajak mutaxassislar suyak sinishda, qon oqishida, oftob yoki issiq urganda, badan muzlab qolganda, badan kuyishda, kuchli zaharlanishda birinchi, ya‘ni vrach ko‘rigigacha ko‘rsatiladigan yordamni bilishi kerak va bu dissertatsiyaning HFX bo‘limida yoritiladi.

**HFX fanga oid ayrim ko'rsatkichlarni ularni qiymatini hisoblash**

**1. MELIORATIV MASHINALARNI TA'MIRLASH USTAXONASI  
UCHUN TABIIY HAVO ALMASHTIRISHNI HISOBLASH**

Havo almashtirishning tabiiy va sun'iy (mexanik) usulda amalga oshirish mumkin. Bu ishda faqat tabiiy havo almashtirish to'g'risida gap boradi.

Tabiiy havo almashtirish ko'ndalang kesimi to'rtburchak yoki aylana shakliga ega bo'lgan, shift va tom orqali o'tib, bitta uchi xona ichida, ikkinchi uchi esa tom qirrasidan baland qilib joylashtirilgan maxsus quvurlar orqali amalga oshiriladi. Shu quvurlar orqali havo ichkaridan tashqariga so'riladi. Ichkariga esa toza havo tashqaridan derazalar, eshiklar va devorda maxsus qilingan boshqa bo'shliqlar orqali kiradi.

So'rish quvurlari orqali havoning harakati tashqaridagi va ichkaridagi havo zichliklaridagi farq tufayli yuzaga keladi. Buning natijasida quvurlarning kirish va chiqish qismlarida bosimlar farqi hosil qilinadi.

Bu bosimlar farqini (naporni) quyidagi ifoda orqali topamiz:

$$\Delta H = hg(\rho_t - \rho_i), Pa$$

bu yerda  $\Delta P$  - bosimlar farqi (napori) , Pa

h- havo so'rish quvuri uzunligi, m      h= 5 m

g- erkin tushish tezligi, m/s<sup>2</sup>      g= 9,81 m/s<sup>2</sup>

Havoning turli bosim va temperaturadagi zichligini quyidagi ifoda orqali hisoblash mumkin:

$$\rho_t = \frac{353P_t}{(273 + t_t) \cdot 760}; kg/m^3$$

$$\rho_i = \frac{353P_i}{(273+t_i) \cdot 760}; kg/m^3$$

bu yerda  $t_t$  – temperaturadagi havo temperaturasi,  $^{\circ}C$

$t_i$  – ichkaridagi havo temperaturasi,  $^{\circ}C$

$P_t$  va  $P_i$  – mos ravishda tashqaridagi havo bosimlari, mm.sim.ust.

$$t_t=15^{\circ}C \quad t_i=20^{\circ}C$$

$$P_t=725 \text{ mm.sim.ust.}; \quad P_i=730 \text{ mm.sim.ust.}$$

Unda

$$\rho_t = \frac{353 \cdot 725}{(273+15) \cdot 760} = \frac{255925}{218880} = 1,17 kg/m^3$$

$$\rho_i = \frac{353 \cdot 730}{(273+20) \cdot 760} = \frac{257690}{222680} = 1,15 kg/m^3$$

u holda

$$\Delta H = 5 \cdot 9,81(1,17 - 1,15) = 0,98 Pa$$

So‘rish quvurlaridagi havo tezligini mahalliy qarshiliklarni hisobga olgan holda hisoblash lozim. Havoning harakat tezligiga quvurning kirish va asosiy qismining shakli, hamda barcha qismining silliqlik darajasi ta’sir ko‘rsatadi. Bu qarshilikni hisobga olish uchun maxsus koeffitsiyent kiritiladi -  $\mu$ . Bu holatda havoning quvurdagi haqiqiy tezligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$V_k = 1,42\mu \sqrt{\frac{\Delta H}{\rho_t}}$$

bu yerda  $\mu$ -mahalliy qarshiliklar koeffitsiyenti, uning qiymati 0,10...0,61 oralig‘ida o‘zgaradi.

U holda

$$V_k = 1,42 \cdot 0,5 \sqrt{\frac{0,98}{1,17}} = 0,71 \sqrt{0,838} = 0,65 m/s$$



Zaruriy havo almashtirish jadalligiga va quvurdagi havo harakati tezligi bog'liq ravimda so'rish quvurlarining ko'ndalang kesim yuzasi yig'indisi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\sum F_k = \frac{1}{3600 \cdot V_k}; m^2$$

Bu yerda L – zararli omil issiqlik bo'lganda havo almashtirish jadalligi L quyidagicha topiladi:

$$L = \frac{Q_0}{c\rho(t_i - t_t)}; m^3 / soat$$

$q_0$  – ortiqcha issiqlikning honada hosil bo'lish jadalligi, kj/soat;

s – havoning o'rtacha solishtirma sig'imi, kj/kg °C

$$s = 1 \text{ kj/kg } ^\circ\text{S}$$

$$q_0 = 26 \text{ kv}t = 93\,600 \text{ kj/soat}$$

Bundan

$$L = \frac{93600}{1 \cdot 1,179(20 - 15)} = \frac{93600}{1,17 \cdot 5} = 16000 \text{ m}^3 / soat$$

U holda

$$\sum F_k = \frac{16000}{3600 \cdot 0,65} = 6,84 \text{ m}^2$$

Quvurlarning ko'ndalang kesim yuzalari shakliga bog'liq holatda, quyidagi keltirilgan ifodalardan havo so'rish quvurlarining sonini topamiz:

$$n_{ko} = \frac{4 \sum F_k}{\pi D^2} \quad - \text{ quvurning ko'ndalang kesimi yuzalari aylana shakliga ega}$$

bo'lsa;

$$n_{kt} = \frac{\sum F_k}{a \cdot b} - \text{quvurning ko'ndalang kesimi yuzalari to'rtburchak shakliga ega}$$

bo'lsa.

$$D = 0,4 \text{ m-aylana shaklini olamiz.}$$

U holda

$$n_{ko} = \frac{4 \cdot 6,84}{3,14 \cdot 0,4^2} = \frac{4 \cdot 6,84}{3,14 \cdot 0,16} = \frac{27,28}{0,5024} = 54,2 \approx 54 \text{ ta}$$

o'rnatilishi zarur bo'lgan deflektorlar soni quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$n_d = \frac{L}{L_d}$$

bu yerda  $L_d$  – deflektor unumdorligi,  $m^3/\text{soat}$ . Uning qiymati quyidagicha topiladi :

$$L_d = 3600V_{dk} \frac{\pi d_d^2}{4}; m^3 / \text{soat}$$

bu yerda  $d_d$  – deflektor diametri, m

$V_{dk}$  – deflektor effektivligini hisobga olgan holda quvurdagi havo tezligi, uni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$V_{dk} = k_e V_{sh}; m/s$$

bu yerda  $V_{sh}$  – shamol tezligi, m/s.

$$V_{sh} = 6 \text{ m/s}$$

$k_e$ –deflektor effektivligi, taxminiy hisoblarda 0,40.....0,42 oralig'ida qabul qilinadi.

$$V_{dk} = 0,41 \cdot 6 = 2,46 \text{ m/s}$$

$$d_d = \frac{1}{53} \sqrt{\frac{L}{n_d \cdot k_e V_{sh}}}; m$$

Hisobda  $n_d = n_{ko}$  deb olamiz, ya'ni  $n_d = n_{ko} = 54$  ta

$$d_d = \frac{1}{53} \sqrt{\frac{16000}{54 \cdot 0,41 \cdot 6}} = 0,21 \text{ m}$$

U holda

$$L_d = 3600 \cdot 2,46 \frac{3,14 \cdot 0,21^2}{4} = 1460 m^3 / \text{soat}$$

o‘rnatiladigan deflektor sonini aniqlaymiz:

$$n_d = \frac{L}{L_d} = \frac{16000}{1460} = 10,95 \approx 11 \text{ ta}$$

## **2. SUV HO‘JALIK OB‘EKTLARIDA SODIR BO‘LADIGAN TABIIY OFATLAR OQIBATLARINI BASHORATLASH**

Suv ho‘jaligi ob‘ektlari ishchilarining himoyalanganligini baholash bu oldindan fuqaro muhofazasining quyidagi masalalarini yechishga qaratiladi—aholi va ishchi xizmatchilarni pana joylar va himoyalani inshootlari bilan ta‘minlanganligi aniqlanadi.

Bu baholanish natijasida kerakli hulosalar qilinadi va kompleks tadbirlar amalga oshiriladi.

Ishchi xizmatchilarni himoyalaydigan inshootlarning holatini aniqlab, ularni yaxshilash choralari ham belgilanadi.

Ob‘ektda ishchilarning ishlash qobiliyatini saqlab qolganlarning soni quyidagicha aniqlanadi:

$$M = A - \frac{AC}{100}$$

bu yerda M – favqulodda vaziyat omillari ta‘siridan so‘ng o‘z ish faoliyatini davom ettirishi mumkin bo‘lgan ishchi xizmatchilar soni.

A – ob‘ektdagi umumiy ishchilar soni

S – ishlab chiqarish qobiliyatini yo‘qotganlar ko‘rsatkichi, %

A = 156 kishi, S = 18 % bo‘lsa,

$$M = 156 - \frac{156 \cdot 18}{100} = 156 - 28 = 128 \text{ kishi}$$

Bahor oylarida yog‘ingarchilikning ko‘p bo‘lishi va tog‘lardagi qor va muzliklarning jadal erishligi, tog‘ oldi zonalarida joylashgan hududlarga sel oqimini olib keladi. Selli toshqinlar hosil bo‘lib, ular suv inshootlari atrofini, qirg‘oqlarini, ba‘zan to‘g‘on va ko‘priklarni yuvib ketadi. Buni natijasida ekin maydonlari va muhandislik inshootlari katta zarar ko‘radi.

### *Suv toshqinida ob'ekt holatini bashoratlash*

Ehtimoliy holatlar uchun ma'lumot quyidagicha:

Suv manbaidagi suv hajmi  $q = 2004000 \text{ m}^3$ .

Suv manбайдan suv kelayotgan joyning kengligi  $B = 25 \text{ m}$ .

Suv kelayotgan joyning chuqurligi  $H = 10 \text{ m}$ .

Suvning o'rtacha tezligi  $V = 20 \text{ m/s}$ .

Suv manбайдan suv xo'jaligi ob'ektigacha bo'lgan masofa  $L = 10 \text{ km}$ .

Ob'ektdagi toshqindan necha metr suv bosish ehtimoli quyidagicha aniqlanadi:

1. Suv to'liqini ma'lum  $L = 10 \text{ km}$  masofaga yetib kelish vaqtini aniqlaymiz:

$$t_s = \frac{L}{V} = \frac{10000}{20} = 500s = 8,33 \text{ min} = 0,14 \text{ soat}$$

2. Ma'lum  $L=10 \text{ km}$  masofadagi suv to'liqining balandligini hisoblaymiz:

$$h = a \cdot H$$

Bu yerda  $a$ -suv toshqini parametrlari  $L$  va  $H$  ga bog'liq koeffitsiyent.

Agar  $H= 10 \text{ m}$  va  $L=10 \text{ km}$  bo'lsa,  $a=0,232$  ga teng bo'ladi.

U holda

$$h=0,232 \cdot 10=2,32 \text{ m}$$

3. Ma'lum hajmdagi  $q=2004000 \text{ m}^3$  suvning o'tib ketish vaqtini aniqlaymiz:

$$T = \frac{Q}{3600 \cdot N \cdot B}; \text{soat}$$

Bu yerda  $N$ -suv kelayotgan joydagi  $1 \text{ m}$  kenglikdagi suv miqdori,  $\text{m}^3/\text{s}$ .

$H=10 \text{ m}$  o'lganda  $N=30 \text{ m}$  ga teng bo'ladi.

U holda

$$T = \frac{2004000}{30 \cdot 20 \cdot 3600} = 56 \text{ min}$$

### **3. «GULISTONDA VSUV MAXSUSPUDRAT» DUK TA'MIRLASH USTAXONASIDA SUN'IY YORITILGANLIKNI HISOBLASH**

Ishlovchilarning ish qobiliyatlarini ko'tarishda va mehnat sharoitlarini yaxshilashda ishchi o'rinlarni va xonalarni yoritish muhim rol o'ynaydi va o'z navbatida ish unumdorligini oshirishga olib keladi.

Me'yorida bo'lgan yoritilganlikda jarohatlashning kelib chiqish potensial xavfi ancha kamayadi. Ishlab chiqarishda ishchi xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun yorug'liklarning o'rni kattadir.

Yoritish tabiiy va sun'iy bo'lishi mumkin. Inson organizmi uchun eng ma'kul bo'lgani bu tabiiy yoritilganlikdir.

Sun'iy yoritish ta'minlash yoritish chiroqlari, fonuslar va boshqalar hisobiga amalga oshiriladi.

Ishlab chikarish binolariga qarab sun'iy yoritishning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- a) yon tomondan
- b) yuqoridan

Sun'iy yoritishning eng keng tarqalgan yorug'lik oqimi usuli bilan hisoblash formulasi:

$$F = \frac{E_{\min} \cdot S \cdot k}{n_{ch} \cdot \eta} \quad (2)$$

bu yerda:

F –zaruriy sun'iy yorug'lik oqimi, lm

$E_{\min}$  - norma bo'yicha minimal yoritilganlik, lk;

S - xonaning maydoni; m<sup>2</sup>

k - xonaning turiga va yorug'lik manbaiga bog'liq bo'lgan ehtiyotlik koeffitsiyenti;

$n_{ch}$  - chiroqlar soni;

$\eta$  - xona ko'rsatkichlari, qaytarish koeffitsiyenti va yoritkich turiga bog'liq koeffitsiyent,

Joylashtiriladigan chiroq qatorlar soni ( $n_1$ ) va bir qatordagi chiroqlar soni ( $n_2$ ) quyidagi formuladan topiladi:

$$n_1 = \frac{B-2}{l} + 1 \quad (3)$$

$$n_2 = \frac{L-2}{l} + 1 \quad (4)$$

Joylashtiriladigan chiroqlar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$n_{\text{чирок}} = n_1 \cdot n_2 \quad (5)$$

Chiroqlar soni aniq bo'lsa joylashtiriladigan har bir chiroqning quvvati ( $P$ ) quyidagicha topiladi:

$$P = \frac{F}{n_{\text{чирок}}} \quad (6)$$

«Gulistondavsuvmaxsuspuadrat» DUK ta'mirlash ustaxonasida tabiiy yoritilganlik bilan ta'minlanganligini hisoblash uchun binoning ba'zi bir fizik ko'rsatkichlaridan foydalanimiz. Bular:

- binoning uzunligi (L) – 41,0 metr
- eni (V) – 13,2 metr
- balandligi (N) – 5,1 metr
- aniqlik darajasi – aniq
- chiroqlarning joylashishi – parallel
- chiroq turi – lyuminitsent

Mexanika sexi uchun quyidagi ko'rsatkichlarni me'yoriy hujjatlardan olinadi:

$E_{\min}$  - norma bo'yicha minimal yoritilganlik, 150 lk;

$k$  - xonaning turiga va yorug'lik manbaiga bog'liq bo'lgan ehtiyotlik koeffitsiyenti, 1,7 ga teng.

Ta'mirlash sexi uchun zarur bo'ladigan sun'iy yoritishning eng keng tarqalgan yorug'lik oqimi usuli bilan hisoblaymiz:

$$F = \frac{E_{\min} \cdot S \cdot k}{n_q \cdot \eta} = \frac{150 \cdot 541,2 \cdot 1,7}{41,1 \cdot 0,46} = \frac{138006}{18,9} = 7301_{\text{lyuks}}$$

Sex bo'ylab joylashtiriladigan chiroq qatorlar soni ( $n_1$ ) va bir qatordagi chiroqlar soni ( $n_2$ ) quyidagi formulalardan topamiz:

$$n_1 = \frac{B-2}{l} + 1 = \frac{13,2-2}{4} + 1 = 3,8$$

$$n_2 = \frac{L-2}{l} + 1 = \frac{41,0-2}{4} + 1 = 10,7$$

Talab etiladigan chiroqlar sonini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$n_{\text{чирок}} = n_1 \cdot n_2 = 3,8 \cdot 10,8 = 41,1$$

Joylashtiriladigan chiroqlar soni va qatori aniqlangandan keyin har bitta chiroqning quvvatini quyidagi formula bilan hisoblaymiz:

$$P = \frac{F}{n_{\text{чирок}}} = \frac{7301}{41,1} = 180$$

Ta'mirlash sexida ishchi-xodimlarga qulay mehnat sharoitlarini yaratish maqsadida sun'iy yoritish bilan to'liq ta'minlash uchun 41 dona 180 V li lyuminitsent chiroqlarini joylashtirish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gazinazarova S., Ibragimov E.I., Yuldashev O.R., Asilova S. Hayot faoliyati xavfsizligi. –Toshkent, 2010 yil. –138 b.
2. Yormatov G‘. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. – Toshkent, “Aloqachi”, 2009 yil. –348 b.
3. G‘oyipov H.E. Hayot faoliyati xavfsizligi. – Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2007. – 264 b.
4. Qudratov A. va boshqalar. “Hayotiy faoliyat xavfsizligi”. Ma’ruza kursi. “Aloqachi” - Toshkent, 2005 yil. –355 b.
5. Yormatov G‘. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. o‘‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2005 yil.
6. Yo‘ldoshev o‘‘. va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish. –Toshkent, “Mehnat”, 2005 yil.
7. Юнусов Б. Руководство по охране труда. –Ташкент, 2004 год.
8. Rasuleva M.A., Yuldoshev O.R. Videoterminallardagi xavfsizlik muammolari. – Toshkent, 2004 yil.
9. Nigmatov I., Tojiev M. X. “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” Darslik.- Toshkent, “Iqtisod-moliya”. 2011 yil. –260 b.
10. Tojiev M. X., Nigmatov I., Ilxomov M. X. “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi”. o‘‘quv qo‘llanma. – Toshkent, “Iqtisod-moliya”, 2005 yil. –195 b.
11. Norxo‘jayev A.Q., Yunusov M.Yu. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. – Toshkent, “Universitet”, 2001 yil.
12. Tojiyev M.X., Nigmatov I va b. “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi”. o‘‘quv qo‘llanma. – Toshkent, MChJ, “Ta’lim manbai”. 2002. –224 b.
13. Yunusov M.Yu., Ikromov E.J. Fuqaro muhofazasi-doimiy zarurat. – Toshkent, 2002.
14. Безопасность жизнедеятельности. /Под.ред. Михайлова Л.А. Киев – Харьков – Минск, 2007. –301 с.
15. Микрюков В.Ю. Безопасность жизнедеятельности. Ростов–Дон. 2006.



## MUNDARIJA

	<b>Bet</b>
Kirish.....	3
I. Umumiy ma'lumotlar.....	4
1.1. Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limining maqsadi va vazifalari.....	6
1.2. Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limining mavzularini tanlash.....	7
1.3. Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limi ilmiy maslahatchisi va magistrning vazifalari.....	8
1.4. Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limining mazmuni.....	8
1.5. Magistrlik dissertatsiyasining HFX bo'limini bajarishni tashkil etish.....	9
II. Magistrlik dissertatsiyasining hayot faoliyati xavfsizligi bo'limi uchun tavsiya etiladigan namunaviy mavzular.....	9
III. Dissertatsiyaning HFX bo'limini bajarish bo'icha qilinadigan ishlarning mazmuni va tarkibi.....	11
Ilova.....	15
Foydalanilgan adabiyotlar.....	24
Mundarija.....	25

**HAYDAROV TUYG‘UN  
AHMEDOV IKROMALI**

**Magistrlik dissertatsiyasining «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo‘limini bajarish  
bo‘yicha**

**USLUBIY KO‘RSATMA**

**Muharrir**

**M. Mustafayeva**

**Musaxxih**

**N. Abdurahmanova**

---

**Bosishga ruxsat etildi \_\_\_\_\_ Qog‘oz o‘lchami 60x84, 1/16  
Hajmi 1,7 b.t 10 nusxa, buyurtma № \_\_\_\_\_  
TIMI bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, 100000, Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39 –uy.**

